



SURXONDARYO VILOYATI TUPROQ RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

ПОЧВЕННЫЕ РЕСУРСЫ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

SOIL RESOURCES AND USE OF SURKHANDARYA REGION

Ashurov Jumanazar Saidkulovich

*Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti Texnologiya va
geografiya kafedrası o'qituvchisi E-mail. ashurovjumanazar14@gmail.com
+998912352234*

Xasanov Sadriddin Soat o'g'li

*Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 401-gurux talabasi*

Annotatsiya: Ushbu ish Surxondaryo viloyati tuproq resurslarining tabiiy-geografik xususiyatlari, ularning tarqalishi, hosil bo'lish omillari va ekologik holatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda tabiiy resurs tushunchasi, tugaydigan va tugamaydigan resurslar tasnifi hamda tuproqning tiklanadigan tabiiy resurs sifatidagi o'rni yoritilgan. Viloyatning murakkab orografik tuzilishi, iqlim sharoiti, yer osti suvlari, ona jinslarning xilma-xilligi va o'simlik qoplamı tuproq turlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgani ilmiy asosda tahlil qilingan. Surxondaryoda bo'z tuproqlarning keng tarqalganligi, jumladan taqirli bo'z, och tusli bo'z, tipik bo'z, to'q tusli bo'z tuproqlar va ularning morfologik xususiyatlari hamda sho'rlanish darajasi batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy resurslar, tuproq turlari, bo'z tuproqlar, taqirli bo'z tuproqlar, och tusli bo'z, tipik bo'z, tog' tuproqlari, sho'rlanish, eroziya, melioratsiya, ona jins, relyef.

Annotation: This study is devoted to examining the natural-geographical characteristics of soil resources in the Surkhandarya region, their distribution, formation factors, and ecological condition. The research covers the concept of natural resources, the classification of renewable and non-renewable resources, and the role of soil as a renewable natural resource. The complex orographic structure of the region, climatic conditions, groundwater level, diversity of parent materials, and vegetation cover are analyzed as key factors influencing the formation of various soil types. The widespread occurrence of gray soils in Surkhandarya — including takir-gray, light gray, typical gray, and dark gray soils — along with their morphological properties and salinization levels, is described in detail.

Keywords: Natural resources, soil types, gray soils, takir-gray soils, light gray soils, typical gray soils, mountain soils, salinization, erosion, land reclamation, parent material, relief.



Аннотация: Данная работа посвящена изучению природно-географических особенностей почвенных ресурсов Сурхандарьинской области, их распространения, факторов почвообразования и экологического состояния. В исследовании рассматриваются понятие природных ресурсов, классификация исчерпаемых и неисчерпаемых ресурсов, а также роль почвы как возобновляемого природного ресурса. Анализируются сложное орографическое строение региона, климатические условия, уровень грунтовых вод, разнообразие почвообразующих пород и растительного покрова как основные факторы формирования различных типов почв. Подробно описано широкое распространение серозёмов в Сурхандарье — такырно-серых, светло-серых, типичных и тёмно-серых почв, их морфологические особенности и степень засолённости.

Ключевые слова: природные ресурсы, типы почв, серозёмы, такырно-серые почвы, светло-серые, типичные серозёмы, горные почвы, засоление, эрозия, мелиорация, почвообразующие породы, рельеф.

Birinchi navbatda tabiiy resurs nima ekanligiga e'tibor qaratamiz. Resurs so'zi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib "yashash vositasi" degan ma'noni bildiradi. Tabiiy resurslar deb inson ongidan tashqarida bo'lgan, inson ehtiyojini qondiruvchi barcha turdagi o'lik va tirik borliqqa aytiladi. Tabiiy resurslar kishilar bevosita tabiatdan oladigan va ularning yashashlari uchun zarur bo'lgan xilma-xil vositalardir degan edi I. Gerasimov va D. Armond. [3]

Resurslar ikkiga bo'linadi: 1) tugaydigan tabiiy resurslar 2) Tugamaydigan tabiiy resurslar. Tugaydigan tabiiy resurslari yana ikkiga: a) tugaydigan tiklanadigan tabiiy resurslar. b) tugaydigan tiklanmaydigan tabiiy resurslar. [2]

Tuproq tugaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar qatoriga kiradi. Tuproq tabiatning eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'zida jonli va jonsiz tabiiy boyliklarni birlashtirgan va mujassamlashtirgan murakkab hosiladir. Viloyat hududining murakkab orografik xususiyatlari unda tuproq ona jinsining har xilligini keltirib chiqargan. Shuning uchun viloyatning tuproq qatlami, uning tiplari va tarkibi bir joydan boshqa bir joyga o'zgarib boradi. Bu yerda cho'l zonasiga xos tuproqlar tarqalgan bo'lsada, ular bir butun yaxlit maydonlar hosil qilmaydi. Ular joyning relyef xususiyatlari, sizot suvlarining kimyoviy tarkibi, chuqurligi va boshqa tabiiy omillarga binoan tuproq tiplari almashinib turadi. [1]

Surxondaryo viloyatida tabiat komponentlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi, geografik tarqalishi va xususiyatlari uning hamma qismida bir xil bo'lmasligi, relyefning murakkabligi, tog' jinslarining kelib chiqishi va litologik tuzilishi, gidrologik sharoitining xilma-xilligi, arid tipli kontinental iqlim va o'simliklarning tarqalishi kabi omillar hududda har xil tuproqlarining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Mintaqada tuproq qatlami, tiplari va tarkibi tekisliklardan tog'larga tomon o'zgarib boradi. Viloyatimizda tekisliklar bilan tog'li qismi o'rtasida tuproqlarning hosil bo'lish sharoiti keskin farq mavjud, shu sababli tekislik zonada tuproq qoplamining kengliklar bo'yicha joylashish



xususiyati mavjud bo'lib, cho'lga xos tuproq turlari shakllangan bo'lsa, tog'li zonalarda esa tuproq tiplarini balandlik mintaqalanishi bo'yicha joylanishini ko'rish mumkin.

Surxondaryo viloyatida bo'z tuproqlar keng tarqalgan. Uning uch tipi uchraydi: Taqirli bo'z tuproqlar, Tipik bo'z tuproqlar, To'q tusli bo'z tuproqlar.

Taqirli bo'z tuproqlar. Taqir tuproq bilan bo'z tuproqning o'tkinchi zonasida keng tarqalgan. [3]

Surxondaryo viloyati tekislik qismi hududida cho'l zonasiga xos tabiiy sharoit kuzatilib iqlimning issiq, quruq, seroftob bo'lganligidan tuproq hosil bo'lish jarayoni sust bo'ladi. Yozi qurg'oqchil, harorat yuqori bo'lganligidan mumkin bo'lgan bug'lanish yog'inga nisbatan 15-20 marotaba ortiqqligi tuproq tarkibida har xil tuzlar to'planib tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'lgan.

Surxondaryo viloyatining yer osti suvlari nisbatan chuqur joylashgan tekisliklarida tog'oldi tekisliklari va adirlarda bo'z, tog'larida jigar rang, qo'ng'ir, tog'-o'rmon kabi avtomorf tuproqlar tarqalgan.

Yer osti suvlari yuzaga yaqin bo'lgan joylarda gidromorfli tuproqlar – o'tloq, botqoq, botqoq-o'tloq kabi tuproqlar mavduddir. Surxondaryo viloyatining tekisliklar qismida och bo'z tuproqlar tarqalgan bo'lib, tarkibida 1—1,5% chirindi bor. 500 m dan baland joylarda, oddiy bo'z tuproq uchraydi. Oddiy bo'z tuproq och bo'z tuproqqa nisbatan chirindiga boy (1,5—2%).

Viloyatning grunt suvi yer betiga yaqin bo'lgan janubiy rayonlarda sho'rlangan tuproq, gil (soz) jinslardan iborat bo'lgan yerlarda esa to'q tusli bo'z tuproq uchraydi. Bo'z tuproqlarning tuproq paydo qiluvchi ona jinslari asosan lyoss, har xil qum, ellyuviy, prolyuviy, allyuviy va delyuviy jinslardan iboratdir. Bu tuproqlarning morfologik tuzilishi chirindili qatlam tarkibida gumusning kamligi, karbonat birikmalarning ko'pligi, kal'tsiy bilan to'yinganligi, ishqorli reaksiyaligi va boshqa xossalari bilan xarakterlanadi.

Bo'z tuproqlarda gumus moddasi kam bo'lsada, biroq azotdan boshqa oziq moddalar yetarli miqdordaligi, chirindili qatlamda donador struktura elementlari bo'lmasada har bir qatlamning o'ziga xos mikrostrukturasi vujudga kelgan. Surxon-Sherobod vohalaridagi bo'z tuproqlar tabiiy xususiyatlarini yo'qotib, sug'oriladigan madaniy voha tuproqlariga aylangan. Viloyat hududida taqir tuproqlar bilan bo'z tuproqlarning o'tkinchi zonasida taqirli bo'z tuproqlar tarqalgan.

Taqirli bo'z tuproqlar mexanik tarkibining og'irligi, tekis yuzali relyef xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi. Bu tuproq yuza qatlami zich bo'ladi, suv o'tkazmaydigan qatlam hosil bo'ladi. Taqir bo'z tuproqlarda chirindi miqdori kam bo'lib 0,40–1,03 foizni tashkil etadi.[2]

Viloyatda taqirli bo'z tuproqlar tog' tizmalari orasidagi cho'kmalarda, Sherobod va Surxon daryolarining quyi qismlari hamda Qiziriqdara platosida tarqalgan. [35. 31b] Viloyatda taqirli bo'z tuproqlar och tusli bo'z tuproqlar bilan almashinadi. Och tusli bo'z tuproqlar viloyatning tekislik qismida dengiz sathidan 300 metr balandlikdan 500-700 metrgacha bo'lgan hududlarda tarqalgan. Mazkur tuproqlarning chirindi miqdori 1-



1,5%ni tashkil etadi. Och tusli bo'z tuproqlar daryo vodiylarida lyoss yotqiziqlari bilan qoplangan. Tuproq hosil qiluvchi jins lyoss va keltirma konuslarning allyuvial va prolyuvial yotqiziqlari hisoblanadi. [3]

Viloyatning sug'orma dehqonchilik qilinadigan qismida tuproq unumdorligi yuqori bo'lib, ushbu tuproqlar tabiiy xususiyatlarini yo'qotib sug'oriladigan madaniy voqa tuproqlariga aylangan. Och tusli bo'z tuproqlarda chirindining asosiy qismi haydalma qatlamda bo'lib, uning miqdori pastga tomon kamayib asosiy qismi haydalma qatlamda bo'lib, uning miqdori pastga tomon kamayib ketadi. Viloyatning Sherobod cho'li zonasida och tusli va tipik bo'z tuproqlar sho'rlanishga uchragan.

Bu esa ushbu zonada tuproq unumdorligini yaxshilash maqsadida kompleks meliorativ tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Viloyatning janubiy qismidagi qum massivlarida qumli cho'l tuproqlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ba'zi yerlarda ko'chib yuruvchi kichik-kichik qumliklar ham uchraydi. Surxondaryo, Amudaryoning quyi qayirlarida esa allyuvial o'tloq, o'tloq-botqoq tuproqlar ham mavjud. Surxondaryo viloyatining tekislik qismida ham xilma-xil tuproq turlari tarqalgan. Jumladan viloyatning grunt suvlari yer betiga yaqin bo'lgan janubiyg'arbiy qismida sho'rlangan tuproqlar, gilli jinslardan iborat bo'lgan yerlar taqir tuproqlar qoplangan. [3]

Surxondaryo viloyatining cho'l mintaqasida sug'oriladigan yarim gidromorf va gidromorf tuproqlardan taqir-o'tloqi, o'tloqi-taqir, taqirsimon-o'tloqi, o'tloqi, sur-qo'ng'ir, cho'l-o'tloqi va o'tloqi qumli cho'l tuproqlari keng tarqalgan Sug'oriladigan taqir-o'tloqi tuproqlar Surxondaryo va Sherobod daryolarining qayir usti terrasalari hamda yoyilmalarida, Qiziriq cho'lida sug'oriladigan taqir-o'tloqi tuproqlar tarqalgan bo'lib, ular mexanik tarkibiga ko'ra og'ir va o'rta, ba'zan yengil qumoqlidir.

Bu tuproqlar turli darajada sho'rlangan bo'lib, sizot suvlari sathi o'rtacha 2,5-3,5 metrda joylashgan. Mintaqaning janubiy qismidagi qum massivlarida cho'l qo'ng'ir tuproqlar, taqirli, sur tusli, qo'ng'ir qumli, cho'l tuproqlari bo'lib, taqirlar rivojlangan. Surxondaryo va Amudaryo qayirlarida allyuvial o'tloq, o'tloq-botqoq tuproqlar vujudga kelgan. Bundan tashqari Surxondaryo daryosining eski yuqori qayirida o'tloq bo'z, botqoq-o'tloq bo'z, botqoq-bo'z kabi gidromorf tuproq turlari ham uchraydi.

Surxondaryo viloyatida tipik bo'z tuproqlar hududning dengiz sathidan 700 metrdan toki 1100-1200 metrgacha bo'lgan balandliklardagi yassi tog'lar va ularning yonbag'irlari, lalmikor va sug'orma dehqonchilik qilinadigan hududlarning bir qismida tarqalgan.

Bu tuproqlar qoplamini inson ta'siriga eng ko'p uchragan, shu sababdan katta maydonda agroirrigatsion qatlam yuzaga kelgan. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar Surxondaryo viloyatining yuqori qismi tog' oldi va daryo yoyilmalari hududlarida tarqalgan.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar o'rtacha va og'ir qumoqlardan, ba'zi hollarda yengil qumoqlardan iborat bo'lib profilning quyi qatlamlari tomon mexanik tarkibi kam o'zgaradi. Bu tuproqlar gipslashmagan va sho'rlanmagan, lekin ayrim relyefning



pastqam joylarida kuchsiz sho'rlangan. Sug'orish natijasida tipik bo'z tuproqlarda agroirrigatsion qatlamlar shakllangan.

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarni mexanik tarkibi turlicha bo'lib, o'rta, yengil qumoqdan va qumloqgacha o'zgaradi. Bu hududlarni sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sho'rlanmagan. Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarni yer osti suvlari chuqur joylashgan yerlarda avtomorf tartibi, pastqam hamda sizot suvlari yer yuzasiga yaqin joylashgan hududlarda gidromorf rejimga o'tib, bevosita antropogen omillar ta'siri ostida rivojlanib boradi.

Surxondaryo viloyati mintaqasining 1500-2500 m dan balandda bo'lgan tog' yon bag'irlarida tog' o'rmon jigar rang va tog' qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Bu tuproqlar lyossli, toshloq jinslar ustida vujudga kelgan. Tog' jigar rang tuproqlarda chirindi miqdori 3-4,5 foizga boradi. Viloyatning dengiz sathidan 2500 m dan yuqori tog'li hududlarida tarqalgan och-qo'ng'ir tog' tuproqlari tarkibidagi chirindi miqdori 4-5 foizga yetadi.

Tog'larning archa va yong'oqzorlar o'sadigan joylarda chirindi miqdori 4-5 foiz bo'lgan och-qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Zarang, olcha, yonroq, do'lana kabi o'simliklar tagidagi tog'-o'rmon jigar rang tuproqlarida chirindi 3—6% ga yetadi. Lekin archazorlar tagida esa jigar rang qung'ir tuproqlar tarkib topgan, tarkibida 14% chirindi saqlaydi. [2]

Tog'li hududlarining baland qismida sizot suvlari uchraydigan joylarda tog' o'tloq-botqoq tuproqlar ham uchraydi. Surxondaryo viloyatida tuproqning ustki unumdor qatlamining uchirib ketilishida shamolning roli katta. Surxondaryo viloyatida sug'orma dehqonchilik qiladigan hududlarda suv eroziyasi namlik bilan yetarli ta'minlangan, yog'in miqdori 350-400 mm dan yuqori va yarim ta'minlangan yog'in miqdori 200-300 mm ni tashkil qiladigan lalmikor yerlarda hamda tipik to'q tusli sur tuproqlarda, qisman tog' oldi va tog' etagi qiyaliklarida uchraydi. Surxondaryo viloyatining sug'orib dehqonchilik qilinadigan hududlari tuproq hosildorligining pasayishiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri tuproqning sho'rlanishi hisoblanadi. Viloyatda yer va suv resurslaridan nooqilona foydalanishi sababli qishloq xo'jaligi bilan bog'liq agroekologik (yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi hisobiga tuproqning sho'rlanishi) muammolar vujudga keldi. Vujudga kelgan bunday agroekologik muammolarni viloyatning tekislik hududlarida joylashgan tumanlarida kuzatishimiz mumkin.

Surxondaryo viloyatida sho'rlangan tuproqlar 92780 gektarni tashkil etib, jami sug'oriladigan maydonlarning 28,5 foizini tashkil etadi yuqori va yarim ta'minlangan yog'in miqdori 200-300 mm ni tashkil qiladigan lalmikor yerlarda hamda tipik to'q tusli sur tuproqlarda, qisman tog' oldi va tog' etagi qiyaliklarida uchraydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Зокиров Х.Х. Сурхондарё табиати ва экологияси". Термиз -2021



2. Зокиров Х.Х. “Табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш” Дарслик. Сурхон-нашр-2020
3. Зокиров Х.Х., Қўлдошева Ш.А. “ Табиатни муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш”. –Тошкент, “YANGI NASHR” 2011
4. Umarova M.H. Abdunazarov H.M. Surxondaryo viloyati tabiiy resurslari. Termiz-2022
5. Рўзиев А. Сурхондарё вилояти. – Тошкент . 1996